ISSN: 2181-4341, IMPACT FACTOR (RESEARCH BIB) – 9.145, SJIF – 5,431

Valisher Abirov

Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti dotsenti v.b. PhD

To’rayeva Muslima

Iqtisodiyot 1- bosqich talabasi

« YANGI O’ZBEKISTON IJTIMOIY-SIYOSIY, IQTISODIY VA MADANIY HAYOTIDA RO’Y BERAYOTGAN O’ZGARISHLARNING XALQARO REYTING VA INDEKSLARDA AKS ETISHI. »

Ushbu maqolada Yangi O’zbekiston sharoitida amalga oshirilayotgan islohatlarning rivojlanish bosqichlari hamda ularning xalqaro indekslardagi o’rni chuqur o’rganiladi tahlil qilinadi. Ayniqsa, mamlakatimizning global ko’rsatgichlardagi ijobiy o;zgarishlari so’ngi yillardagi statistik ma’lumotlar va aniq faktlar yordamida asoslab berilgan. Shuningdek, dunyo tashkilotlari va davlatlar tomonidan berilayotgan baholarning ilayotgan baholari respublikamizning investitsiyaga jalb qilish darajasi va xalqaro reytingdagi obro’siga qanday ta’sir ko’rsatayotgani yoritib berilgan.

Kalit so’zlar: Yangi O’zbekiston, xalqaro reyting, indeks, iqtisodiy erkinlik, shaffoflik, ijtimoiy islohatlar, inson kapitali, transformatsiya.

O‘zbekiston endilikda “Yangi O‘zbekiston” konsepsiyasiga asoslangan taraqqiyotning yangi bosqichiga qadam qo‘ymoqda. Keyingi yillarda amalga oshirilgan keng ko‘lamli islohotlar davlat boshqaruvi, iqtisodiyot, ijtimoiy xizmat ko‘rsatish va madaniyatni modernizatsiya qilishga xizmat qilmoqda. Bu o‘zgarishlar nafaqat mamlakatning ichki taraqqiyotini ta’minlabgina qolmay, balki uning xalqaro maydondagi mavqeini sezilarli darajada ko’tarib beryapti .

Yangi O‘zbekistonda amalga oshirilayotgan islohotlar jamiyat hayotining barchasohalariga taalluqli bo‘lib, mamlakatning barqaror rivojlanishiga xizmat qilmoqda. Ayniqsa, siyosiy tizimni demokratlashtirish, iqtisodiyotni modernizatsiya qilish, ta’lim va sog’liqni saqlash tizimlarini rivojlantirish, sud-huquq tizimini takomillashtirish va shu bilan birga aholi turmush tarzini yaxshilashga yo’naltirilgan chora-tadbirlar muhim ahamiyat kasb etmoqda. Ushbu islohotlar natijasida jamiyat faravonligi uchun ochiqlik va shaffoflik kuchayib, fuqarolarning huquq va manfaatlari yanada kuchliroq himoya qilinmoqda. Bunga qo’shimcha qilib aytganda, fuqarolarning davlat boshqaruvidagi ishtiroki kengaymoqda va matbuot erkinligi kafolatlanmoqda. Bu tendentsiya xalqaro tashkilotlar tomonidan olqishlanadi va O‘zbekistonning har xil turdagi reytinglardagi o’rnini yaxshilanishiga xizmat qiladi.

Ayni paytda iqtisodiy islohotlar o‘zining yuksak samaralarini bermoqda. Bozor iqtisodiyoti tamoyillarini qabul qilish, pul-kredit siyosatini liberallashtirish, soliq tizimini soddalashtirish, tadbirkorlikni qo‘llab-quvvatlash – bularning barchasi mamlakatimizda jozibador investisiya muhitini yaratmoqda. Xorijiy sarmoyadorlar uchun yaratilayotgan bunday imkoniyatlar tufayli iqtisodiyotga sarmoya kiritayotganlar ko‘payib, O‘zbekistonning jahon iqtisodiy reytinglarida yuksalishiga imkoniyat yaratmoqda.

Madaniyat sohasida sezilarli va ijobiy o'zgarishlar yuz bermoqda . Milliy qadriyatlarni asrab-avaylash va mamlakatimizning boy tarixiy merosini tiklashga alohida e’tibor qaratilayotgani ko‘plab tarixiy obidalarning ta’mirlanishi va zamonaviy madaniyat

markazlarining barpo etilishiga olib keldi. Ayni paytda turizm sohasining rivojlanishi mamlakatimizga qiziqish ortib, xalqaro nufuzini mustahkamlashga xizmat qilmoqda. Madaniy almashinuv dasturlari O‘zbekistonning boy va betakror madaniyati bilan dunyoni tanishtirishda muhim o‘rin tutadi. Bu islohotlar samaralari xalqaro reyting va ko‘rsatkichlarda yaqqol namoyon bo‘lmoqda. Iqtisodiy erkinlikni kengaytirish, jozibador sarmoyaviy muhitni yaratish, korrupsiyaga qarshi kurashni kuchaytirish, huquqiy tizimni takomillashtirishga qaratilgan chora-tadbirlar sezilarli ijobiy o‘zgarishlarga olib kelmoqda. Buning samarasida O‘zbekiston xalqaro hamjamiyatda ishonchli hamkorga aylandi, uning jahon miqyosida raqobatbardoshligi yuksalib bormoqda.

Xulosa o‘rnida shuni aytish kerakki, “Yangi O‘zbekiston” dasturi doirasida amalga oshirilayotgan islohotlar mamlakatimiz hayotining barcha jabhalarida tub o‘zgarishlarga olib kelmoqda. Bu o‘zgarishlar ijtimoiy-siyosiy barqarorlikni mustahkamlaydi, iqtisodiy taraqqiyotni tezlashtiradi, madaniy taraqqiyotni ta’minlaydi. Ular xalqaro reyting va ko‘rsatkichlarga ham ijobiy ta’sir ko‘rsatmoqda, O‘zbekistonning xalqaro hamjamiyatdagi nufuzini oshirmoqda. Ushbu islohotlarning yanada amalga oshirilishi mamlakatimizni kelajakda yanada yuksak taraqqiyot bosqichlariga ko‘tarish imkonini berishi kutilmoqda.